

BIZNES VA MENEJMENTDA INNOVATSIYALAR

Abatova Gulnaz

Ilmiy rahbar: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali assistent o'qituvchisi

Ongarbaev Berdaq Orazbay o'g'li

Muallif: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali madaniyatshunoslik
yo'nalishi I bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada biznes, innovatsion faoliyat orqali kompaniyalar samaradorligini oshirishda innovatsion menejmentning orni ahamiyati va vazifalari ko'rib chiqilgan. Bugungi kunda ko'pgina xalqaro biznes tadqiqotlarining natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, kompaniyaning samaradorligi va uning innovatsion faoliyati intensivligi o'rtasida yuqori bog'liqlik mavjud.

Xalqaro kompaniyalarning yangi-innovatsion rivojlanish yoliga otishi bilan xalqaro kompaniyalarda innovatsion menejment masalalariga e'tibor kuchaydi. Asosiy maqsad-tashkilotni samarali boshqarish, qaror qabul qilish va o'qitish biznes jarayonlarini tushunishga, tahliliy va strategik qobiliyatlariga, shuningdek, yetakchi qobiliyatlari va shaxslararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion faoliyat, biznes, innovatsion menejment, xalqaro kompaniyalar, rivojlanish, jarayon, strategiya,

"Innovatsion menejment" kategoriyasini o'rganishni "innovatsiya" tushunchasidan boshlash maqsadga muvofiq. "Innovatsiya" sozi lotincha "novatsiya" sozidan kelib chiqqan va "yangilik yoki o'zgarish yo'nalishi" degan ma'noni anglatadi. Iqtisodiy hamkorlik va Taraqqiyot Tashkilotining tarifiga ko'ra innovatsiya bu mutlaqo yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar yoki xizmat) yoki jarayonni, yangi marketing usuli, boshqaruv metodi yoki yangi tashkiliy jarayonlarni biznes amaliyotida, mehnat faoliyatini tashkil qilishda yoki tashqi aloqalarni o'rnatishda qo'llanishdir.

Innovatsion menejmentning yakuniy maqsadi bo'lib, uzoq muddatli IK (investitsion kapital) ni funksiyalashtirishni ta'minlash va innovatsion jarayonlarni samarali tashkil etish yotadi. Firmada innovatsion jarayonlarni samarali tashkil etish mezonlari bo'lib, zamonaviy shartlarda innovatsion mahsulot realizatsiya qilishdan olingan foyda innovatsion faoliyat xarajatlarini hisoblashga imkon beruvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. IK ning foydaliligi, daromadliligi maqsad sifatida emas, innovatsion faoliyatni amalga oshirish sharti va natijasi bo'lib hisoblanadi.

Menejment IKning barcha ichki va tashqi elementlarining samaradorligini hamda bir-biri bilan bog'liqligini ta'minlaydi. Innovatsion tizimning bu holatini uyg'unlik deb atash





qabul qilingan. IK faoliyatida uyg'unlikka erishuv, innovatsion menejmentning asosiy maqsadli vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Garvard biznes maktabi professori M.Porter 1985-yilda nashr etilgan "Raqobat afzalligi: yuqori darajadagi natijaga qanday erishish va uni saqlab turish mumkin" asarida "firma raqobatbardoshligining asosiy muammolari sanoat rentabelligi va kompaniyaning raqobatbardosh pozitsiyasidir",-deb ta'kidlaydi. Oz navbatida, "innovatsiyalar, raqobatchilar ushbu yangilikni o'z kompaniyalarida joriy qilmaguncha, xarajatlarni optimallashtirish va daromadlarni ko'paytirish orqali kompaniyalarga yangi sohada yagona o'yinchi bolishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tahlil natijalari innovatsion menejmentning xalqaro kompaniyalardagi rolimni o'rganish muhim ekanligini isbotlaydi. Kompaniyalar shunday innovatsion tuzilma va boshqaruv madaniyatini yaratish kerakki, unda innovatsion rivojlanish yo'nalishlari istiqbolli yangi mahsulotlarni doimiy ravishda ishlab chiqish va yangi biznes yo'nalishlarini yaratish bilan bog'liq bo'lgan umumiy yo'nalishlarini yaratish bilan bog'liq bo'lgan umumiy strategik rejalarga uyg'unlashishi lozim.

Tadbirkorlik va menejment yo'nalishi bo'yicha biznes boshqaruvi bakalavriat dasturini o'zlashtirish talabalarda biznesni boshqarish tajribasini yuksaltirish, yetakchilik qobiliyatlarini oshirish, tadbirkorlik uchun zarur tafakkurini rivojlantirish bo'yicha mustahkam poydevor yaratadi. Ushbu dastur vositasida qo'lga kiritilgan ko'nikmalarning xilma-xilligi bitiruvchilarni turli sohalarda muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatni amalga oshirishlari yoki tadbirkorlik ishlarini boshlashlari uchun puxta zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Abdullaev B. Innovatsiya jarayonida xorij tajribasi imkoniyatlar O'zbeklisan iqtisodiy axborotnomasi 2005-yil.

2.Abdullaev B, Abduraimov I.Innovatsiya subyektlari faoliyati samaradorligini aniqlash. " Bozor, pul va kredit " 2005-yil .

3.Innovatsion siyosatni tahlil qilish va shakllantirish uchun oid shartlar, 2015-yil.

4.Qosimova.D.S. Menejment nazariyasi

5.Boboyev.A.Ch.(2018). O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faolligini rag'batlantirish yo'llari .

